

TEMURIYLAR DAVRIDA XUROSON VA MOVAROUNNAHR

Omondavlatova Xurshida Rustam qizi

Bobanazarova Mohichehra Sodiq qizi

Yuldoshova Feruza Akram qizi

Hatamov Avazbek Sobirovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabalari

ANNOTATSIYA

Garchand Amir Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini sharq-u g'arbga, shimolu janubga kengaytirib, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatlardan yuksaltirib dovrug'ini olamga mashhur qilgan bo'lsa-da, biroq uning vafotidan keyin mamlakat tanazzulga uchrab bordi. Buning asosiy sababi awalo shundaki, Amir Temur tasarrufiga kirgan ellar va yurtlar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib uzoq vaqt boshqarish murakkab edi. Buning ustiga, ulardagi mavjud turli-tuman muholifatchi kuchlar ertami-kech o'z hududiy mustaqilligi uchun harakat yetishlari tabiiy edi.

Kalit so'zar: Temuriylar, ijtimoiy- iqtisodiy hayot, madaniyat va bunyodkorlik, me'morchilik, xattotlik, musiqa va tasviriy san'at, ilm-fan taraqqiyoti.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Ana shu davrdan bosh boshdoqlik kuchayib ketadi. Amir Temur o'z zamonining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur bu ulkan maqsadini ro'yobga chiqarish ishini avvalo ichki g'animlariga qarshi kurashdan boshlaydi. 1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shinlari bilan kuchli raqib, Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yolga chiqadi.

Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganida uning huzuriga taniqli sayidlardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi.¹ Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi tabl bilan yalov-bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqea, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega

¹ Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sa'dayn va majmai baxrayn, T., 1969;

edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, yo'l-yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370- yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. 1370-yilning 11-aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari, Amir Temurning yoshlikdan birga bo'lgan quroldosh do'stlari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkaziladi. ¹Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Amir Temur davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishdi. U 1370- yil, iyul oyida Samarqandda qurultoy chaqiradi. Qurultoyda Shibirg'on hokimi amir Zinda Chashmdan boshqa Movarounnahrning barcha amirlari va qabila boshliqlari to'plandilar. Ikki daryo oralig'ida yashovchi turk-mo'g'ul qabila boshliqlari, barcha amirlar Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Samarqand davlat poytaxti deb e'lon qilindi. Samarqandda mustahkam devorlar, qal'alar hamda saroylar barpo etiladi. Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo'shin tuzib, unga katta imtiyozlar berdi. Amir Temur yirik harbiy bo'linmalarning boshliqlari etib Joku, Sayfuddin, Abbas, A'lam Shayx, Ardasher qavchin va boshqalarni tayinladi. Tajribali harbiylar sipohsolarlikka tayinlandi. 1370-yildayoq Shibirg'on bo'ysundirildi. Zinda Chashm Amir Temur xizmatiga o'tdi. Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun Sharqiy Turkiston tomon bir necha marta yurish qilib, Mo'g'uliston xonlariga zarba berib, Farg'ona vodiysi hududlarini, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayramni o'z tasarrufiga oldi. Hisor, Badaxshon, Qunduz kabi viloyat amirlari ham Amir Temur hokimiyatini tan olib, unga bo'ysundilar. 1381-yilda Hirot, Seiston, Mozandaron egallandi. Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari ham jangsiz Amir Temurga bo'ysundi va uning tasarrufiga o'tdi.² Shu tariqa butun Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi. Amir Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm davlati qaror topgan edi. Qadimdan iqtisodiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan bevosita bog'liq bo'lgan Xorazm mo'g'ullar davrida ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qal'asi bo'lgan Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'ysundirilgan. XIV asrning 60-yillari oxirida Oltin O'rdada yuz bergan g'alayonlar vaqtida Qo'ng'iro't so'filari Shimoliy Xorazmda yangi sulolalarning

¹ Ibn Arabshoh, Ajoib ulmakdur fi axbori Temur, T., 1992;

² Mirza Muxammad Xaydar, Tarixi Rashidi. T., 1996;

mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. Soʻngra Kat va Xiva shaharlarini fath etib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Amir Temur esa butun Xorazmni Chigʻatoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun u Xorazmni oʻz davlatiga qoʻshib olish siyosatini tutdi. Amir Temur 1372-yilda Xorazmni, uni egallaydi. Biroq tarixiy voqealarning taqozosi bilan Amir Temur Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi, Xorazm 1388-yilda uzil-kesil boʻysundirildi.¹

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobiy ahamiyatga ega boʻldi. Boshqa avlodlari u boshlab bergan ijtimoiy – madaniy hayotdagi yoʻnalishlarni davom ettirishga, Temuriylar saltanatining anʼanalarini saqlab qolishga harakat qildi. Markaziy Osiyodagi IX – XII asrlardagi ilm – fan, madaniyatning gurkirab yashnashi Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida ilk uygʻonish davrini tashkil etgan boʻlsa, XIV asr oxiri XV asr moʻgʻul mustamlakachiligidan qutulib, mustaqil davlatning shakllanishi va rivoji asosida madaniyatda yana koʻtarilish va keskin rivoj roʻy berdi. Bu davrni madaniyatdagi keskin ravishda boʻlinib qolgan uygʻonish davrining yakuni – soʻngi uygʻonish davri deb atash mumkin. XV asrning temuriylar saltanatini Shoxruh idora qila boshlagan 20-30 yillariga kelib, shahar qurilishiga oid keng koʻlamdagi ishlar uning poytaxti Hirotida olib borildi. Shaharning yuqori koʻtarilgan qismi yangi devor va handaqlar bilan oʻrab olindi. Hirot devori toʻrtburchak shaklda boʻlib, ikkita markaziy shohkoʻcha shahar markazida kesishgan, shaharning ular xosil qilgan toʻrtta qismida esa qurilish erkin rejalashtirgan. Shahar tevaragida rabotlar joylashgan, keng – moʻl xiyobon boʻylab diniy – meʼmoriy majmualar quritgan, bogʻ rogʻlar, uzumzorlar barpo qilingan. XV asrda esa mahallalar bogʻlar ichida koʻmilib ketgan. Asosiy koʻchalar gumbazlar panasida qolgan yoki ustiga chodir – soyabon tortilgan doʻkonlari ustaxonalarning uzluksiz qatorlaridan bilinib turadi. Ana shu umumiy manzarada poytaxt shaharning asosiy meʼmoriy inshootlari – biridan ulugʻvor masjid, minora, madrasa va maqbaralar yaqqol koʻrinadi.² Yiroq – yiroqlarda esa qalʼaning qudratli devorlari koʻzga tashlanadi. Bu davrda arab tili din va qisman fan tili boʻlib qolsada, asosan ilm va badiiy adabiyot – sanʼat tili sifatida turkiy va forsiy tillarning mavqei kuchayib, asosiy oʻringa

¹ Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T., 1996;

² 1996; Ahmedov B., Ulugʻbek, T., 1989;

chiqdi. Davlat ishlari ham shu tillarda olib borildi. Temur va temuriylar davri deyarli bir yarim asr Osiyo, ayniqsa, Markaziy Osiyo tarixida nihoyatda ko‘p serqirra, rang barang, madaniy manaviy boyliklarni yaratgani, xalq talantlari uchun imkoniyat yarata olganligi, turkiy xalqlar madaniyati tarixida tamoman yangi uzoq asrlarga ozuqa bergan qatlamlar, yangi sahifalar vujudga keltirgani bilan mashhurdir. Temur mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga harakat qildi. U ishg‘ol qilgan xorijiy mamlakatlardagi ilm ahlini o‘z panohiga oldi. Rus olimi A.Y.Yakubovskiy Temurning bu sohadagi ishlari haqida yozgan edi: “U yaxshi hisob kitoblik xo‘jayin edi. U Movarounnahrda nafaqat turli tuman boyliklarni balki hunarmand, musavvir, me‘mor va olimlarni ham olib keldi¹. To‘g‘ri Movarounnahrning o‘zi mutaxassisi va olimlarga boy edi. Lekin fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar qancha ko‘p bo‘lsa, hunarmandchilik, madaniyat ilm fan ham shuncha tez rivojlanadi”².

XULOSA

Shunday qilib XIV asrning oxiriga kelib Samarqand sharqning eng go‘zal, obod shaharlaridan biriga aylandi. Bu yerda ulkan binolar, keng hiyobonlar qurishga katta e‘tibor berildi. XV asr boshida Movarounnahrda kelgan ispan sayyohi Rui Ganzales de Klavixoning ma‘lumotiga qaraganda, Samarqandning boyligi faqat oziq – ovqat mo‘lligi bilan emas balki shoyi matolari, atlas, mo‘ynadan qilingan kiyimlari, turli mamlakatlardan keltirilgan bozor va maydonlari, ko‘chalarining keng va ko‘rkamligi bilan ko‘zga tashlanadi. Xullas, bu davr madaniyatining yutuqlari xalqimizning keyingi madaniy rivojlanishiga katta zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sa‘dayn va majmai baxrayn, T., 1969;
2. Ibn Arabshoh, Ajoib ulmakdur fi axbori Temur, T., 1992;
3. Mirza Muxammad Xaydar, Tarixi Rashidi. T., 1996;
4. Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T., 1996;
5. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, T., 1996;
6. Ahmedov B., Ulug‘bek, T., 1989;
7. Fayziyev T., Mirzo Ulug‘bek avlodlari, T., 1994;

¹Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, T.,

²1996; Ahmedov B., Ulug‘bek, T., 1989;